

**“O‘ZMETKOMBINAT” AJ**  
**Kuzatuv kengashining qarori bilan**  
**“TASDIQLANGAN”**  
(2025-yil 15 iyun 12-sonli bayonnoma)

**“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish**  
**REGLAMENTI**

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida (keyingi o‘rinlarda–Kombinat) korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralari ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Kombinatdagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, Kombinat rahbariga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ishonch telefoni** – Kombinatga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

**murojaatchi** – aloqa kanallari orqali Kombinatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

**manfaatlar to‘qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Kombinatlarning, Jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;

**korrupsiyaviy xarakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Kombinat xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Kombinat nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

**taaluqli xabar** – Kombinatdagi korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar;

**xodim** – Kombinat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida o‘zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo‘lida xodimning mansab

yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari).

4. Kombinat korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo'ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

**konfedensiallik va xavfsizlik** – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Kombinatning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo'lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish) ga haqqi yo'q. Agar murojaatchi o'z xabarini yuborganligi xaqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o'z xohishiga ko'ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo'lsa, Kombinat uning oshkor bo'lishiga javobgar bo'lmaydi;

**qonuniylik** – Kombinat aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, qayta ishlash va ko'rib chiqish qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

**murojaatchining ta'qib qilinmasligi** – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o'z xohishiga ko'ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan Kombinat xodimi xabarning mazmunidan qat'i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

**murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa** – agar xabar anonim bo'lmasa, uni ko'rib chiqish natijalari Kombinat tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

**ta'sir choralari qo'llashning majburiyligi** – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Kombinat aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

## **2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari**

5. Taaluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

Kombinatning rasmiy veb-sayti(<https://uzbeksteel.uz>) yoki elektron pochta ([info@uzbeksteel.uz](mailto:info@uzbeksteel.uz)) orqali;

Kombinatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Telegramdagi rasmiy sahifasi ([https://t.me/UMK\\_ANTICOR\\_BOT](https://t.me/UMK_ANTICOR_BOT) ) orqali;

Kombinatning telefon raqamlari orqali +998 71 514 1917, 90 99867 20; ichki raqam (17 - 07);

Kombinatga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda ko'rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.

6. Kombinat aloqa kanallari to'g'risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, va ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o'quv materiallariga kiritadi, Kombinat binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

## **3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taaluqli xabarlarni qabul qilish**

7. Kombinatning Komplayens xizmati Kombinatning aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlarni ko'rib chiqishga mas'ul hisoblanadi.

8. Kombinatning quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning

murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom va Kombinatning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro'yxatga olinadi va rezolyusiya uchun Kombinat rahbariga chiqariladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;

Kombinatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochta orqali;

Kombinatning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Kombinatga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.

9. Kombinatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Komplayens xizmati mas'ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, taaluqli xabar kelib tushganda Komplayens xizmati mas'ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo'li bilan yoki telefon orqali bog'lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni Reestrda ro'yxatga oladi va ma'lumotni Kombinat rahbariga kiritadi.

Komplayens xizmati mas'ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

10. Agar murojaatchi o'z xabarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo'lsa, murojaatni qabul qilishga mas'ul xodim ularni taqdim etish bo'yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochta)ni ko'rsatadi va taqdim etiladigan ma'lumotni konfidentsialligini bildiradi. Mazkur ma'lumotlar taaluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

11. Kombinat rahbari taaluqli xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko'rib chiqish uchun Kombinatning Komplayens xizmati topshiriq tushiradi.

12. Kombinatning Komplayens xizmati taaluqli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda Kombinatda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrda (keyingi o'rinlarda – Reestr) ro'yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko'rib chiqishi lozim.

13. Kombinat murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xarakterli to'g'risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda Kombinatning ma'sul xodimi, imkon mavjud bo'lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Kombinatga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'lana olmasliklari mumkinligi haqida ma'lum qilishi;

qo'shimcha zarur ma'lumot olish imkoniyati bo'lmagan taqdirda xabarni to'liq va har tomonlama o'rgana olmasliklarini bildirishi;

murojaatchiga u bilan bog'lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko'rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va.b.);

Murojaatchi o'z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

13. Kombinat xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

14. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taaluqli materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishlash tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 yildan kam bo'lmagan muddatga saqlanishi kerak.

#### **4-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish**

15. Komplayens xizmati kelib tushgan barcha taaluqli xabarlar ushbu tuzilmaning mas'ul xodimlari yoki Kombinat rahbari topshirig'iga asosan boshqa bo'linmalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

16. Korrupsiyaviy xarakatlari to'g'risidagi xabarlarni ko'rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taaluqli xabar kelib tushgan yoki ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

17. Taaluqli xabar kelib tushganda Komplayens xizmati xodimi dastlabki tekshirish o'tkazib, uning taaluqliligini tahlil qiladi, ya'ni xabarda ko'rsatilgan ma'lumotning Kombinat tizimiga taaluqli korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka va (yoki) manfaatlar to'qnashuviga tegishligini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taaluqli xabar Komplayens xizmati kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

18. Mazkur Reglamentning 17-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat'i nazar, bu haqdagi axborot Reestrda kiritiladi.

19. Agar Komplayens xizmati xodimi xabar taaluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Kombinatning tegishli tuzilmasiga bildirgi asosida o'tkazilishi lozim.

20. Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Komplayens xizmati xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

21. Taaluqli xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish Kombinatga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oy ichida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, Kombinatning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

22. Murojaatga javob Komplayens xizmati tomonidan tayyorlanib, Kombinat rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

23. Taaluqli xabarlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

24. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan taaluqli xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi.

#### **5-bob. Hisobdorlik**

25. Reestrda Komplayens xizmati xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlari va Kombinatlarining xodimlari (faqat shunday xabarlarga doir), Kombinat rahbari yoki rahbarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishini nazorat qiluvchi o'rinbosari foydalanishi mumkin.

26. Reestr ma'lumotlari asosida Komplayens xizmati har chorakda Kombinat rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy xarakatlar to'g'risidagi xabarlarga taaluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

kelib tushgan taaluqli xabarlar va ko‘rib chiqilgan taaluqli xabarlar soni;  
korrupsiyaviy xarakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi holatlari tasdiqlangan taaluqli xabarlar soni;  
ko‘rib chiqish muddatlari buzilgan taaluqli xabarlar soni;  
taaluqli xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘rtacha muddati;  
murojaatchilar tomonidan eng ko‘p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma’lumotlar.

### **6-bob. Yakuniy qoida**

27. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

28. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqilishi lozim/

#### **Asos:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomi.

2. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419-son Qonuni.

3. ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi” xalqaro standarti talablari va tavsiyalari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2017-yil 11-sentabr, № ZRU-445 «Jismoni va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida».

